

Rasmiy munosabat: Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaroning uy-joyi ta'mirlanishiga ko'mak ko'rsatiladi



Ijtimoiy tarmoqlarda Muzrabot tumani Oriyat mahallasida yashovchi fuqaro D.Panjiyevaning uy-joyini ta'mirlashda ko'mak so'rab qilgan murojaatlari besamar ketayotganligi to'g'risida material e'lon qilingan. Mazkur murojaat yuzasidan quyidagilar ma'lum qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 11-sentabrdagi videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlariga asosan aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amalga oshirilmoqda. Xususan, Surxondaryo viloyatida "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da turgan 23 mingdan ortiq oila 4700 dan ortiq rahbarlar va ularning o'rinbosarlariga birlashtirilgan.

Surxondaryo viloyatida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini namunali amalga oshirish bo'yicha Muzrabot tumani, xususan, Oriyat va Fayziobod mahallalari tanlab olingan bo'lib, hozirda ishlar boshlangan. Mazkur dasturga asosan fuqaro D.Panjiyevaning uy-joy sharoitlarini yaxshilash choralari ko'riladi hamda oilaga zarur ko'maklar ko'rsatiladi.

Shuningdek, oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.